

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA O'QITISH METODLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

**Abdurahimova Madina Andijon davlat
pedagogika instituti Ijtimoiy va amaliy
fanlar fakulteti 201-guruh talabasi**

Annotatsiya: Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bu musiqa ta'limining sifat va samaradorligini oshirishdan iborat. Musiqa saboqlari bolalarning estetik, ma'naviy va madaniy tarbiyasida g'oyatda katta ahamiyatga ega. Musiqa nafaqat his-tuyg'ularni boyitadi, balki yoshlarda estetik did, ma'naviy dunyoqarash, ijodkorlik, jamoada ishlash ko'nikmasi, ona yurtimiz tarixi va qadriyatlariga hurmatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Ana shu jihatlarni inobatga olib, umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish jarayonini talab darajasida tashkil etish, zamonaviy pedagogik va innovatsion metodlarni qo'llash orqali samaradorlikka erishish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kalit so'zlar: umumta'lim maktablari, musiqa o'qitish, metodlarni takomillashtirish, pedagogik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, musiqiy tarbiya, interaktiv metodlar, o'quvchilar ijodiyoti, milliy qadriyatlar, zamonaviy ta'lim.

Аннотация: Одним из важных направлений реформ, проводимых сегодня в системе образования, является повышение качества и эффективности музыкального образования. Уроки музыки имеют огромное значение в эстетическом, духовном и культурном воспитании детей. Музыка не только обогащает эмоции, но и играет важную роль в формировании у молодежи эстетического вкуса, духовного мировоззрения, творческих способностей, навыков работы в команде, уважения к истории и ценностям нашей родины. С учетом этих аспектов, актуальной задачей является организация процесса музыкального образования в средних школах на необходимом уровне, достижение эффективности за счет использования современных педагогических и инновационных методов.

Ключевые слова: средние школы, музыкальное образование, совершенствование методов, педагогический подход, инновационные технологии, музыкальное образование, интерактивные методы, творчество учащихся, национальные ценности, современное образование

Abstract: One of the important directions of reforms being implemented in the education system today is to improve the quality and effectiveness of music education. Music lessons are of great importance in the aesthetic, spiritual and cultural education of children. Music not only enriches emotions, but also plays an important role in the formation of aesthetic taste, spiritual outlook, creativity, teamwork skills, respect for the history and values of our homeland in young people. Taking into account these aspects, it is an urgent task to organize the process of music education in secondary schools at the required level, to achieve efficiency through the use of modern pedagogical and innovative methods.

Keywords: secondary schools, music education, improvement of methods, pedagogical approach, innovative technologies, music education, interactive methods, student creativity, national values, modern education.

KIRISH

Musika o'qitish jarayonining asosida o'quvchilarning musiqiy didini shakllantirish, ularni musika san'ati bilan ichdan tanishtirish va ijodiy tafakkurini rivojlantirish vazifalari yotadi. Bunda o'qituvchi avvalo o'quvchining yoshidagi psixologik va fiziologik xususiyatlarni chuqur o'rganishi, shunga ko'ra metodlarni to'g'ri tanlashi muhim. Musika darslarida an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unligi, o'yin elementlaridan foydalanish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish, tinglash, ijro, nazariy bilimlarni singdirish orqali o'quvchilarda musiqaga bo'lgan qiziqishni oshirish mumkin. Bu jarayonda mulohazakorlik, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, individual rivojlanishga e'tibor, mustaqil fikrlashni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Musika o'qitish metodlarini takomillashtirishda birinchi navbatda, dars jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish lozim. Axborot texnologiyalari yordamida audiovizual vositalardan (video va audio yozuvlar, multimediali

loyihalardan) samarali foydalanish afzalligi shundaki, u musiqa asarlarini keng qamrovda, xalq va dunyo musiqasi namunalaridan foydalanishga, o'quvchilarning mustaqil tinglash va tahlil qilish ko'nikmasini oshirishga yordam beradi. Bu orqali darslar yanada jonli va qiziqarli bo'ladi. Animator va musiqiy dasturlardan foydalanish o'quvchilarning erkin ijod qilishiga, musiqiy tafakkurini boyitishda qo'l keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda interaktiv usullardan foydalanish, guruhlarda ishlash, loyihaviy va muammoli vaziyatlar asosida darslarni olib borish natijasida o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rganadi. Bu usullar musiqa darslarining bir so'rovnoma va tinglovchanlikdan iborat bo'lishidan ko'ra, yanada faol, harakatli va mazmunli o'tishini ta'minlaydi. Darslarda asarlarni birgalikda talqin qilish, guruhlarda tahlil qilish, fikr almashish, baholash, muhokama qilish orqali musiqa asarlarining mazmunini chuqur anglashga erishiladi. Musiqa o'qitishda eng muhim jihatlardan yana biri bu o'quvchining mustaqil faoliyatini tashkil qilishdir. O'quvchilar mustaqil ravishda eshitgan yoki ijro etilgan asar haqida o'z mulohazalarini yozma yoki og'zaki ifodalashlari, o'z ijod mahsulini namoyon qilishlari, o'z ustida ishlash, mashq bajarishlari mumkin. Buning uchun o'qituvchi ularga nazariy asos va amaliy ko'nikmalarni berib borishga, ularning qiziqish va ehtiyojlarini inobatga olishga e'tibor qaratishi lozim. Musiqiy tarbiyaning asosiy omili hisoblangan tinglash, ijro va tahlil qilish, improvizatsiya va ijodiy mashqlar orqali bolalarning musiqiy salohiyati rivojlanadi. Tinglash usuli orqali bolalar turli musiqiy asarlarni eshitib, undagi mazmun, ohang, ijro uslubi, milliy kadriyatlar, muallifning niyati va ruhini anglaydilar. Ijro va amaliy mashg'ulotlar orqali bolalarda musiqa asarini to'g'ri, ifodali, hissiyot bilan ijro etish malakalari shakllanadi. Tahlil qilish va fikr yuritish esa bolalarning musiqiy tafakkuri, ziyo va zehni rivojlanishiga imkon beradi [1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarda mustaqil bilim olish ko'nikmasini shakllantirish, ularga zamonaviy hayotda kerakli bo'ladigan musiqiy bilim va

malakalarni singdirishdir. Bunda o'qituvchi kundalik darslarni mas'uliyat bilan ishlab chiqishi, turli zamonaviy interaktiv metodlar va vositalarni qo'llashga intilishi, har bir o'quvchi bilan individual ishlashi, ularning qiziqishi va moyilligini to'g'ri aniqlashi kerak. Darsda ijodiy muhit yaratish, samarali tashkil etish, har bir bolaga o'z iste'dod va imkoniyatini namoyon qilish uchun sharoit yaratish zarur. Musiqa dasturlarini yanada takomillashtirish va ularni samarali amalga oshirish asosan darsdan tashqari ishlarni ham yuksak darajada tashkil qilishga bog'liq. Bu borada musiqa to'garaklari, ansambllar, xor jamoalari, madaniy tadbirlarni keng yo'lga qo'yish, o'quvchilarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, ularning ommaviy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarni konkurs, festivallarga faol jalb qilish, ularni mukofotlash, rag'batlantirish ijobiy natija beradi. Bu jarayonlarda o'qituvchi tashabbuskor, fidoyi va yetakchi bo'lishi, har doim yangilikdan xabardor bo'lishi lozim [2].

Yana bir muhim yo'nalish – xalq musiqasi, milliy an'analarni chuqur o'rgatishga alohida e'tibor berishdir. Milliy musiqiy qadriyatlarimiz va an'analарimizni o'rganish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik, tarix, madaniyatga hurmat tuyg'ularini rivojlantirish mumkin. Shu orqali maktablarda har bir o'quvchi o'z xalqining musiqiy merosi, urf-odatları va urf-usullarini anglashi, ularni asrash va kelajak avlodga yetkazishda mas'uliyatli bo'ladi. Musiqa o'qitish metodlari doimo zamonaviy pedagogik g'oya va yondashuvlar bilan boyitib borilishi zarur. Globalizatsiya, raqamli texnologiyalar asrida har bir o'qituvchi musiqiy ta'limda ilg'or xorijiy tajriba, jahon musiqiy asarlari, pedagogik innovatsiyalar, zamonaviy texnika va texnologiyalar orqali o'quvchilarda keng dunyoqarash, ijtimoiy moslashuvchanlik, erkin fikrlash, estetik shaxsni tarbiyalashga erishishi lozim. Musiqa darslarining sifatini oshirish uchun o'qituvchilarning malakasini doimiy oshirib borish, ularni zamonaviy musiqa pedagogikasi, psixologiyasi, texnologiyalari haqidagi bilimlari bilan boyitib borish ahamiyatli. Har bir musiqa o'qituvchisi yangi adabiyotlar, internet manbalari, onlayn kurslar, vebinar va seminarlarda ishtirok etishi, o'z ustida tinimsiz ishlashi, ijodiy izlanishda bo'lishi natijasida samarali natijaga erishiladi.

Musiqqa o'qitishda o'quvchilar o'rtasida erkin va do'stona muhit yaratish, har bir bola o'z fikrini, hissiyotini, g'oyasini erkin ifodalay olishi uchun imkoniyat tug'dirish ham muhimdir. Darslarda so'z erkinligi, savol-javob, erkin muhokamalar, bahs-munozaralarga keng o'rin berilishi o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularda mustaqil qaror qabul qilish, mustahkam hikmat va bilimga ega bo'lish ko'nikmasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, musiqqa darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tarbiyani yo'lga qo'yish, bolalarga halollik, vatanparvarlik, gumanizm, insonparvarlik, mehr-shafqat kabi fazilatlarini ham singdirib borish kerak. Musiqqa asfalta tarbiyaning eng kuchli vositalaridan bo'lib, uning imkoniyatlaridan to'laonli foydalanish, o'quvchilarning ruhiy haqida ham, jismoniy salomatligi haqida ham e'tiborga olish zarur. Musiqiy estetik tarbiyada bolalarning ko'ngil olamiga, his-tuyg'ulariga, kechinmalariga, ichki dunyosiga e'tibor qaratish ta'lim sifati va mazmunini oshiradi [3].

Hozirgi kunda maktablarda musiqqa ta'limining zamonaviy bosqichida turli innovatsion texnologiyalar, interaktiv usullardan keng foydalanish zarur deb hisoblanadi. Darslarda ma'lumotlardan yaxshiroq foydalanish uchun audio va video materiallar, musiqiy portallar, elektron vositalar, noan'anaviy dars ishlanmalari, musiqiy viktorinalar, tanlov kafelari musiqaga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Musiqqa darslarini dizaynlashtirish va rejalashtirishda ko'proq ijodiy yondashuv, zamonaviy metodika, yangi qoidalar va yondashuvlarni o'zlashtirish, bolalarning o'z hayotiy tajribasi asosida o'zini erkin namoyon qilishi uchun keng imkoniyat yaratish kerak. Dars jarayonida turli musiqiy asarlar namunolari, ilg'or musiqachi va bastakorlar ijodidan namunalar, zamonaviy asarlar bilan bolalarni tanishtirish, dasturlar qamrovini kengaytirish orqali musiqiy ta'limni yanada mazmunli qilish mumkin. O'quvchilarning ijodiy salohiyatini aniqlash, ularda liderlik, ishonchli nutq, jamoaga yetakchilik qilishi kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarda musiqiy kechalar, festivallar, badiiy tadbirlarni tez-tez tashkil etib borish, ota-onalarni ham hamkorlikka jalb etish ta'lim samaradorligini oshiradi. Musiqqa o'qitish metodlarini takomillashtirishda milliy an'analarni, zamonaviy pedagogik va psixologik

yondashuvlarni birlashtirish, ilgʻor xorijiy tajribani oʻrganish va amaliyotga tatbiq qilish joriy taʼlim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Darslarda har bir oʻquvchining musiqiy dunyosini ochish, ularni oʻz vokal, cholgʻu, havaskorlik isteʼdodini koʻrsatishi uchun sharoit yaratish va ragʻbatlantirish musiqa taʼlimini yangi bosqichga olib chiqadi [4].

Maktablarda musiqa fanini oʻqitish samaradorligini oshirish uchun darsliklar, qoʻshimcha adabiyotlarni zamonaviy va milliy ruhda boyitish, ilmiy-uslubiy ishlanmalarni yangilash, oʻqituvchilarning malakasini oshirish uchun doimiy treninglar tashkil etish lozim. Musiqa darslarining yangi formatlarini ishlab chiqish, bolalar uchun zamonaviy musiqiy dasturlar, interaktiv mashgʻulotlar, elektron darsliklar yaratish — bularning hammasi taʼlim sifatini keskin oshiradi [5]

XULOSA

Yakunda aytish mumkinki, umumtaʼlim maktablarida musiqa taʼlimini takomillashtirish har tomonlama yuksak ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Dars jarayonida bolalarning musiqiy tafakkurini, estetik didini, ijodiy salohiyatini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligini shakllantirish, oʻzbek xalqining boy musiqiy-madaniy merosini asrash va rivojlantirish asosiy maqsad boʻlib qoladi. Zamonaviy dars jarayonida ilgʻor pedagoglarning boy tajribasini, oʻquvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda, faol, jonli, oʻzini namoyon qilishga asoslangan yondashuvlar yordamida samarali natijaga erishish mumkin. Musiqa oʻqituvchilari oldida turgan asosiy vazifa — har bir bolaga estetik did, musiqiy savodxonlik, ijodiy tafakkur, milliy madaniyatga muhabbat va fidoyilik singdirish, har bir qobiliyatli oʻquvchini ilgari surish, ularning hayotda oʻz oʻrnini topishiga yordam berishdan iboratdir. Ana shunda maktablarda musiqa darslarining samaradorligi oshib, musiqa orqali tom maʼnoda barkamol inson, zamonaviy avlod tarbiyalash imkoniyati yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurashidov, A. (2019). "Musiqa taʼlimida zamonaviy interaktiv texnologiyalardan foydalanish." Oʻzbekiston Pedagogika Jurnal, 5(3), 122-130.

2. Akbarov, B. (2018). "Umumta'lim maktablarida musiqa fanini o'qitish texnologiyalari." O'zMU Ilmiy Axborotlari, 6(2), 94-98.
3. Anorboeva, D. (2022). "Musiqiy savodxonlikni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar." Zamonaviy Ta'lim, 3(1), 67-72.
4. Bekmurodova, G. (2021). "Ta'lim jarayonida milliy musiqa merosini o'rgatishning pedagogik asoslari." Boshlang'ich Ta'lim Metodikalari, 9(4), 87-92.
5. Ergasheva, S. (2017). "Musiqa darslarida interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari." Musiqa va Madaniyat, 2(2), 55-60.
6. Islomov, O. (2018). "Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari." O'zbekiston Ta'limi, 4(1), 79-83.
7. Nazarova, M. (2020). "Musiqa fanidan o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish." Ilmli Hayot, 11(2), 21-25.